



МАКТАБГАЧА КАТТА YOSHDAGI BOLALARNI SHAXSIY ХАВФСИЗЛИККА О'RGATISHDA TARBIYACHINING O'RNI

Muratova Munavvar O'rol qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lif fakulteti

"Maktabgacha ta'lif metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

munavvar.muratova1@gmail.com

Annotatsiya: Maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning hayot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyachilarini tomonidan ta'lif va tarbiya jarayonlarida bolalar salomatligini ta'minlash va mustaxkamlash, ularga nisbatan zo'ravonlik yoki shafqatsizlikni oldini olish, yoki ota-onasi va tarbiyachilar tomonidan jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zo'ravonlik qilinishi yoki, umuman beparvolik kabi masalalri yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Sog'lom turmush tarzi, ota-onasi, pedagog, hayot xavfsizligi, chora-tadbirlar, jismoniy zo'ravonllik, jinsiy zo'ravonllik, e'tiborsizlik, muhit, hamkorlik, xavfsizlik qoidalari, ta'lif-tarbiya, tashabbuskorlik, rivojlantirish, hamkorlikdagi yondoshuv, mahorat.

Abstract: The article is aimed at ensuring the safety of the lives of preschool children, and today, educators of preschool educational organizations ensure and strengthen children's health in the process of education and upbringing, prevent violence or cruelty against them, or issues such as physical, sexual or mental abuse by parents and guardians or general negligence are covered.

Key words: Healthy lifestyle, parents, educators, life safety, measures, physical violence, sexual violence, neglect, environment, cooperation, safety rules, education, initiative, development, cooperative approach, skill.

Shaxsiy xavfsizlik (qiz va o'g'il bolalarga nisbatan zo'ravnlik, kattalar tomonidan bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, tahdidlar,jinsiy zo'ravonllik, ruhiy zo'ravonllik,jismoniy zo'ravonllik va e'tiborsizlik): Bolalarga nisbatan zo'ravonlik yoki shafqatsizlik bu bola yoki bolalar guruhiga kattalar yoki ota-onasi va tarbiyachilar tomonidan jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zo'ravonlik qilinishi yoki, umuman beparvolik ham zo'ravonlik va shafqatsizlikning bir ko'rinishi hisoblanadi.



Hayot xavfsizligi – muhim qadriyatlarning tahdidlardan himoyalanganlik holatidir”¹ – deb ta’rif beradi V.N.Panin. Haqiqatdan ham, har qanday subyekt yoki onbyekt doimiy mavjud bo’lishi uchun birlamchi muhim qadriyat bu- xavfsizlik va tinchlikdir. Bolalarga nisbatan zo’ravonlik ota-onasiga yoki tarbiyachining bolaga haqiqiy yoki potensial zarar yetkazishga olib keladiganhar qanday hatti harakat yoki harakatsizlikni o’z ichiga olishi mumkin va bu holat odatda bolaning uyida yoki bola vaqt o’tkazadigan tashkilotlarda sodir bo’ladi. Bolalarga nisbatan zo’ravonlik va bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo’lish atamalari ko’pincha bir-birining o’rnida ishlataladi. Shunga qaramay, bazi tadqiqotchilar bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo’lish atamasini beparvolik, ekspulitatsiya va odam savdosini o’z ichiga oluvchi soyabon atamasi sifatida ko’rishadi.

Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti bolalarga nisbatan zo’ravonlik holatlarini to’rt guruhga ajratadi:

- jismoniy zo’ravonlik;
- jinsiy zo’ravonlik;
- hissiy (yoki psixologik) zo’ravonlik
- e’tiborsizlik.

Bolaning hayoti va salomatligi ota-onalar va Maktabgacha ta’lim tashkiloti hodimlari uchun eng katta qadriyatlardan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e’lon qilingan g’oyalar ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib, bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1959-yil 20-noyabrda BMTning Bosh Assambleyasini tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida ko’zda tutilgan. Shu bilan birga Bola huquqlari deklaratsiyasining 19-moddasida bolaga nisbatan jismoniy va ruhiy zo’ravonlik, g’amxo’rlik ko’rsatmaslik yoki beparvolik bilan munosabatda bo’lish, qo’pol muomala qilish, jumladan, shahvoniy suiiste’molliklar sodir etishning har qanday shakillaridan himoyalanish maqsadida jamiki zarur qonuniy, ma’amuriy, ijtimoy va ma’muriy, ijtimoiy va ma’rifiy chora tadbirlar ko’rishi bayon qilib o’tilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko’pincha xavfli vaziatda nima qilish kerakligini aniq va bosqichma-bosqich tushunmaydi, chunki “yo’q” so’zi harakat rejasi ham, ko’rsatma ham emas. Kichkintoylar uchun “Jiddiy suhbatlar” shunchaki zerikarli va tushunarsiz jarayon hisoblanadi. Biroq, xavfsiz va sog’lom turmush tarzi – bu faqat olingan bilimlar yig’indisi emas, balki turmush tarzi bolalar ko’chada va uyda

¹ Панин В.Н. Международная и региональная безопасность Ж некоторые теоритико- методологические аспекты исследования. В.1.



kutilmagan vaziyatlarga tushib qolishlari mumkin, shuning uchun asosiy vazifa ularning mustaqilligi va mas'uliyatini rivojlantirishni rag'batlantirishdir. Shu munosabat bilan bolalarning tajriba orttirishlari uchun turli xil faoliyat turlarini(o'yin orqai) tashkil etishga ko'proq e'tibor berish kerak. Axir, bolalarga o'rgatilgan har bir narsani ular hayotda qo'llashlari kerak. S.P. Statman o'z tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarga shaxsiy xavfsizlikni o'rgatishning afzalligi shundaki, bolalar qoidalarni yaxshi ko'radilar va ularga to'liq rioya qiladilar. Agar qoidalalar kimdir tomonidan unitilgan bo'lsa, bola darhol unga javob beradi. Bu yoshdagi bolaning mantiqqa bo'lган istagi kattalarga unga xavfsizlik qoidalarni o'rgatishda yordam beradi. Maktabagcha katta yoshdagi bolalarga begonalarning hech biri ularga tegmasliklari, o'pishlari va silashlari kerak emasligini o'rgatib borish muhim shartlardan biri sanaladi.

Bolalar "shaxsiy xavfsizlik" ro'yxatidagi barcha qoidalarga rioya qilishi lozim:

- ✓ Yaxshi va yomon odamlar haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- ✓ Tananing intim qisimlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi, quchoqlash va o'pish faqat oila a'zolariga mumkin ekanligini bilishi;
- ✓ "Yo'q"deb ayta olishi.

Demak har bir insonning o'z shaxsiy maydoni bor, unga faqat eng yaqinlari kirishi mumkin. Sizning yaqinlaringi sizning oilangizdir. Shuning uchun, agar kimdir sizni quchoqlagan yoki silagan bo'lsa, siz uzoqlashishingiz kerak, "Menga tegmang" deb ayting va keyin menga aytishni unitmang". Tahdid orqali hech qachon ko'zlagan maqsadimizga erisha olmaymiz. Shu sababli, ushbu yoshdagi bolalarga foydali ko'nikmalarni o'yin orqali o'rgatish yaxshiroqdir, bu yerda qiziqarli topshiriqlar, birgalikda va o'yin shaklida javob berilishi lozim bo'lган savollar o'z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muratova, M. (2022). MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALARINI TA'LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.
2. Muratova, M. O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta'lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 13, 111-113.



3. Muratova, M. O. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AKT NING SALBIY TASIRI. In *ПРОБЛЕМЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ* (pp. 7-11).
4. Muratova, M. (2023). NEGATIVE CONSEQUENCES OF BULLYING IN RELATION TO PRESCHOOL CHILDREN. International Journal of Pedagogics, 3(10), 43-47.
5. Muratova, M. (2023). PECULIAR ASPECTS OF WORKING WITH FAMILY IN THE FORMATION OF THE CULTURE OF LIFE SAFETY IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. Science and innovation, 2(B2), 593-596.
6. Yakubova, Z. Z. (2022, October). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLANING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIGA PROFESSIONAL YORDAM KO 'RSATISHDA OILA, MAHALLA VA MAKTAB BILAN HAMKORLIK ISHLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 8, pp. 68-73).
7. Yakubova, Z. Z. (2023). MILLIY TARBIYA ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA OILA, MAXALLA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILTLAR HAMKORLIGI. *GOLDEN BRAIN*, 1(15), 141-147.
8. Махмудова, Д. А. (2024). ВЛИЯНИЕ РАЗВИВАЮЩИХ ИГР НА ЛИПУЧКАХ НА РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 199-202.
9. Джамилова, Н. Н., Кадирова, Н. М., & Жамилова, Ф. М. (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ. Управление дошкольным образовательным учреждением, (6), 36-42.